| Mansurov Saidxo'ja Kamalovich , tayanch doktorant | |
| O'zbekiston Respublikasida soliq tavakkalchiligini boshqarishning hozirgi zamon muammolari | 875 |
| Abdusheerov Abdullo Baxtiyorovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Modern Methods of Tax Control: Analysis, Problems and Solutions | 879 |
| Ergasheva Malikakhon , Independent researcher | |
| Iqtisodiyotni raqamlashtirish mehnat bozorida bandlik darajasini oshirish omili sifatida | 884 |
| Amanov Otabek Amankulovich | |
| Tashqi savdo – statistik o'rganishning obyekti sifatida | 888 |
| Ergashev Mirjon Yorqin o'g'li , tayanch doktorant | |
| Nodavlat notijoat tashkilotlarida maqsadli tushumlarga doir ishchi schotlarni takomillashtirish | 893 |
| Ne'matov Oybek Ismatullayevich , PhD | |
| Kichik biznes subyektlarida marketing strategiyasini qo'llash va uni takomillashtirish | 897 |
| Saidaxmedova Nodira Iloxomova , DsC | |
| Библиометрический анализ области знаний налогового администрирования | 902 |
| Bokhodir Isroilov , Doctor of Economics, Boburshokh Ibragimov , PhD | |
| Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni tartibini takomillashtirish tahlili | 909 |
| Raximova Shaxlo Rajapboyevna , mustaqil tadqiqotchi | |
| Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ahamiyati | 915 |
| Xo'jaqulova Nigora Rustamovna , PhD | |
| Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliqlarning ta'sirini boshqarish | 922 |
| Maxmudov Anvarjon Maxmudovich , mustaqil izlanuvchi | |
| O'zbekistonda tijorat banklarining investitsion faoliyatining ekonometrik tahlili | 930 |
| Achilov Uyg'unjon Ulug'bekovich , dotsent | |
| Семья и ее роль в воспитании молодежи | 935 |
| Зайналов Жахонгир Расулович , профессор, Бердикулов Журабек , ассистент | |
| Don mahsulotlari korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining boshqaruv hisobi, audit va tahlil qilishga oid tadqiqotlarga doir mulohazalar | 938 |
| Nosirov Ilhom Abbosovich , i.f.d., Abdilalimov Akmaljon Obidjanovich , mustaqil izlanuvchi | |
| Повышение эффективности маркетинговой деятельности издательско-полиграфических компаний .. | 943 |
| Холмирзаева Феруза Абдуллаевна | |
| Совершенствование учета качества в предприятиях по хранению и переработке зерна | 949 |
| Холбеков Расул Олимович , доктор экономических наук, профессор | |
| Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlari | 956 |
| Axmedova Nafisa Amriddin qizi | |
| Iste'molchilarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini takomillashtirish | 962 |
| Ruziyeva Shaxlo Raupovna | |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari | 968 |
| Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant | |
| Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar | 972 |
| Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD | |
| Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish | 978 |
| Latipova Shaxnoza Maxmudovna | |
| Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida) | 983 |
| Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna | |
| Пути организации инновационных процессов в Узбекистане | 988 |
| Насиров Дилшод Фарходович | |
| Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе | 992 |
| Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр | |



TIJORAT BANKLARING CHAKANA XIZMATLARI VA ULARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Xudayarova Xurshida Abdunazarovna

PhD, Toshkent moliya instituti "Bank ishi" kafedrası
katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklari chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar, chakana bank xizmatlarining ahamiyati va ularni takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, chakana bank xizmatlari, depozitlar, omonatlar, kredit, foiz stavka, kapitallashuv, bank aktivlari.

RETAIL SERVICES OF COMMERCIAL BANKS AND FACTORS AFFECTING THEM

Khudayarova Khurshida Abdunazarovna

PhD, Senior teacher of "Banking" department of Tashkent Financial Institute

Abstract: The article examines the retail services of commercial banks and factors affecting them, the importance of retail banking services and ways to improve them.

Key words: banking services, retail banking services, deposits, savings, credit, interest rate, capitalization, bank assets.

РОЗНИЧНЫЕ УСЛУГИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НИХ

Худаярова Хуршида Абдуназаровна

PhD, Старший преподаватель кафедры "Банковского дела" Ташкентского финансового института

Аннотация: В статье рассматриваются розничные услуги коммерческих банков и факторы, влияющие на них, значение розничных банковских услуг и пути их улучшения.

Ключевые слова: банковские услуги, розничные банковские услуги, депозиты, сбережения, кредит, процентная ставка, капитализация, банковские активы.

KIRISH

Chakana bank xizmatlari - bugungi banklar uchun foydali biznes turlaridan biri hisoblanadi. Chakana bank xizmatlarining jozibadorligi korporativ mijozlarning deyarli barchasi bank xizmatlari bilan qamrab olinganligi va ushbu bozor segmentida raqobatning ancha shiddatli va qattikligi bilan asoslanadi. Tijorat banklarining chakana xizmatlarini o'ziga xos ijobiy taraflari mavjud. Bularga qo'yidagilarni sanab o'tish mumkin:

- banklarni tez-tez almashtirishga moyil bo'lmagan mijozlarning "yuqori sadoqatliligi"ni ta'minlaydi;
- mijozlarning turli bug'implarga ajralishi riteyl biznesdan yetarli darajada foizli daromad olishga imkon beradi;
- taqqoslaganda, chakana mijozlarga berilgan kichik summadagi kreditlar, kredit riskini diversifikatsiyalaydi. Jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar summasi odatda korporativ mijozlarnikiga qaraganda kichik bo'ladi va ko'p sonli mijozlarga taqsimlanishi natijasida kredit riskini diversifikatsiyalaydi.
- shuningdek, yirik korporatsiyalarga qaraganda talabning o'zgaruvchanligi ham kuzatiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, korporativ yirik mijozlar banklarning xizmat turlariga bo'lgan talablarini tez tez o'zgartirishadi va qo'shimcha imkoniyatlarni talab etishadi, jismoniy shaxslarning esa bank xizmat turlariga bo'lgan talablari unchalik o'zgaruvchan emas.
- ba'zi mintaqalarda yirik kompaniyalarning yo'qligiga qaramay, chakana xizmatlarning kengayishi tijorat banklarini doimiy daromad bilan ta'minlaydi. Mamlakat miqyosida korxona, tashkilotlarning joylashishi turli regionlarda har xil bo'ladi. Shunday ekan, mintaqalarda yirik kompaniyalarning yo'qligiga qaramay, chakana xizmatlar tijorat banklariga doimiy daromadni ta'minlaydi.



Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida ham bank tizimining rivoji va banklararo raqobatning takomillashuvi tijorat banklari oldida tijorat banklari xizmatlarini takomillashtirish, yangi bank xizmatlarini joriy etish vazifasini kundalang qo'ymokda. Shunday ekan, banklararo raqobatning oshib borishi, bank tizimida tijorat banklarining aholi uchun taklif etayotgan chakana xizmatlarini ham takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chakana bank xizmatlari bozorini rivojlantirish, boshqa bank segmentlariga qaraganda geografik, etnik, iqtisodiy va siyosiy omillarga bog'liq. Ushbu bank xizmatlarini boshqarishda, rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda, unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish va bozorni rivojlanish tendensiyasini tahlil qilishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda yetakchi iqtisodiy adabiyotlarda maxalliy va xorijiy olimlar tomonidan bank xizmatlarining nazariy asoslari u yoki bu jihatdan o'rganilgan. F. Suyarovning "Chakana bank xizmatlari bozori" nomli maqolasida tijorat banklari chakana xizmatlariga qo'yidagicha ta'rif berilgan, "Riteyl bank - jismoniy shaxslar uchun bo'plab bank xizmatlarini yetkazib berishdir" [9].

Rossiyalik olimlardan A. M. Tavasiyeva [10], G. N. Beloglazova [3] bank mahsulotiga mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish yo'llarini kiritadilar. G. N. Beloglazova, A. M. Tavasiyevalarning fikricha, bank xizmati asosida operatsiya yotadi, ya'ni bank operatsiyasi natijasida bank xizmati yaratiladi va ushbu operatsiya bank mijoz talabini qondiradi degan qarashni ilgari suradi. Yuqoridagi iqtisodchilardan farqli o'laroq A. N. Ivanov bank mahsulotiga, alohida bank faoliyati bo'yicha mijoz talabini qondirish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari to'plami va operatsiyalarini amalga oshirilishini kiritadi [8].

Iqtisodchi olim Ye. F. Jukov bank xizmatlari tushunchasiga faqat moliyaviy xizmatlarni kiritgan, u bank asosan operatsiya bajaradi deb hisoblaydi. Bank operatsiyalarini aktiv va passiv operatsiyalarga bo'lib, bankning moliyaviy xizmatlariga lizing, faktoring, forfeiting va trast operatsiyalarni kiritadi [7]. S. V. Galitskayaning qarashi ham yuqoridagi olimlar qarashlariga mos kelsada, faqat ulardan farqli ularoq, u bank xizmatlari aktiv va passiv operatsiyalarni o'z ichiga oladi va bank xizmati obekti bo'lib kapital hisoblanadi deb hisoblaydi [4].


S. A. Guryanov yuqoridagi ko'rib chiqilgan qarashlardan farqli o'laroq bank xizmati deb kaysidir bir talabni qondiruvchi va moliya bozorida sotish uchun mo'ljallangan xizmatni kiritadi [5]. A. S. Goncharuk tomonidan "Chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir" degan mualliflik ta'rifi shakllantirilgan [6]. Bank xizmatlarini yo'naltirish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, "Bank chakana xizmatlari bu- jismoniy shaxslarning aniq bir bank xizmatlariga bo'lgan shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj, xohish va talablarini qondirish uchun tijorat banklari tomonidan taklif etiladigan, tijorat faoliyatiga yo'naltirilmaydigan bank xizmatlari yig'indisidir".

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda dialektik mantiq, ilmiy bilish, induksiya va deduksiya, taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik va umumlashtirish, ekspert baholash usullaridan shuningdek, mavzuga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning tadqiqot ishlaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari chakana xizmatlari bozoriga ta'sir etuvchi omillarni o'rganilar ekan, ularni bir necha kategoriyalarga ajratgan holda o'rganish mumkin:



1-rasm: Tijorat banklari chakana xizmatlariga ta'sir etuvchi omillar



- **Tashqi va ichki omillar.** Chakana xizmatlar bozoriga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda makroiqtisodiy omillar(tashqi) va bank tizimidagi xolat bilan(ichki) aniqlanadigan omillarga ajratish mumkin.

Tijorat banklari chakana xizmatlariga ta'sir etuvchi tashqi yoki makroiqtisodiy omillar ichida iqtisodiy o'sishning sifati katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda iqtisodiyotning o'sishi kuzatilmoqda, YAIM 2018-yilga nisbatan 2022-yilda 2,08 martaga oshdi ^[12].

1-jadval: O'zbekistonning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ^[12]

| № | Davr | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil |
|---|---------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1 | Yalpi ichki mahsulot mlrd. so'm | 426,6 | 532,7 | 605,5 | 738,4 | 888,3 |
| 2 | YAIM Indeks-deflyatori | 326.0 | 384.1 | 428.0 | 486.0 | 553.3 |
| 3 | Inflyatsiya darajasi | 14.3 | 15,2%. | 11,14% | 9,98% | 12,25% |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rnadiki, mamlakatimizda YAIMning yildan yilga o'tgan davrlarga nisbatan o'sish sur'ati kuzatiladi. 2022-yilda YAIMning o'sish sur'ati 20,3 foizni tashkil qilgan. Aholi jon boshiga esa 29,4 mln so'mni tashkil qilib, oldingi yilga nisbatan past sur'atda, ya'ni 11.5 foizgagina oshgan. Buni biz respublikada aholi sonining oshib borayotganligi bilan izohlashimiz mumkin. Yana bir tashqi omillardan biri bu aholi daromadliligi hisoblanadi. Aholi daromadining o'sishi, kreditlarni o'z vaqtida qaytirilishi hamda bank omonatlari miqdorini ko'payishiga zamin yaratadi. Mamlakatimiz misolida qaraydigan bo'lsak so'ngi yilda aholining pul daromadlari 22,3 foizga oshgan, bu ijobiy holat bo'lib buni biz o'tgan yillar mobaynida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida bir necha bor oylik ish haqi, nafaqa va stipendiyalarning bir necha foizga oshirilishi bilan izohlashimiz mumkin.

2-jadval: Aholining pul daromadlarini o'tgan yillarga nisbatan o'sish dinamikasi ^[12]

| № | Ko'rsatkichlar nomi | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil |
|----|--|----------|----------|----------|----------|----------|
| 1. | Aholi umumiy daromadlari, mlrd. so'm | 300842.7 | 365735.6 | 414968.7 | 519181.4 | 634797.0 |
| | o'tgan yilga nisbatan, % da | 127.0 | 121.6 | 113.5 | 125.1 | 122.3 |
| 2. | Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so'm | 9128.6 | 10891.3 | 12122.2 | 14869.8 | 17807.3 |
| | o'tgan yilga nisbatan, % da | 124.8 | 119.3 | 111.3 | 122.7 | 119.8 |

Makroiqtisodiy o'sish sifatiga ta'sir etuvchi omillar tarkibida, korxona va tashkilotlarni barqaror faoliyati ham ta'sir ko'rsataradi, o'z navbatida ular tijorat banklari chakana xizmatlariga ham bilvosita ta'sir ko'rsatmay qo'ymaydi. So'ngi yillarda, mamlakatda tadbirkorlikka keng imkoniyat yaratib berilmoqda. Ushbu tarmoqni rivojlanishi makroiqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, aholini ish bilan bankligini oshiradi, o'z navbatida aholini daromadlilik darajasini o'sishiga zamin yaratadi.

Inflyatsiya darajasi va milliy valyutaning xorijiy valyutalarga almashinishi kursi dinamikasi, keyingi asosiy makroiqtisodiy omillarga kiradi. Milliy valyuta kursini xorijiy valyutaga nisbatan 2020-2021-yillardagi yuqori devalvatsiyasi butun dunyoda kuzatilgan pandemiya sharoiti natijasida yuzaga kelgan.

3-jadval: So'mning xorijiy valyutalarga nisbatan almashuv kursi ^[11] (1-yanvar)

| | 1 AQSh dollari | O'zgarishi, (+/-) | 1 yevro | O'zgarishi, (+/-) | 1 Rossiya rubli | O'zgarishi, (+/-) |
|----------|----------------|-------------------|----------|-------------------|-----------------|-------------------|
| 2019-yil | 8336.25 | 126,18 | 9533.34 | -91,38 | 119.85 | -20 |
| 2020-yil | 9507.56 | 1171.31 | 10624.70 | 1090.66 | 153.17 | 33.32 |
| 2021-yil | 10476.92 | 969.36 | 12786.03 | 2161.33 | 141.27 | -11.9 |
| 2022-yil | 10837.66 | 360.74 | 12224.88 | -561.23 | 147.07 | 5.8 |
| 2023-yil | 11225.46 | 387.8 | 11961.85 | -262.95 | 153.64 | 6.57 |

Shuningdek, chakana bank xizmatlar bozorining rivojlanishi mamlakatdagi barqaror va samarali pul-kredit siyosatining olib borilishiga xam bog'liqdir. So'ngi yillarda mamlakatimizda erkin konvertatsiya va nisbatan barqaror inflyatsiya darjasi kuzatilmoqda.



4-jadval: O'zbekiston Respublikasida inflyatsiya darajasini va muddatli depozitlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkaning o'zgarishi ^[11]

| Davr | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil |
|--|----------|----------|----------|----------|----------|
| Yillik inflyatsiya darajasi % | 14.3 | 15,2%. | 11,14% | 9,98% | 12,25% |
| Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari | 15,5 | 18 | 19.7 | 20.2 | 20.2 |

Shuni alohida ta'kidlash kerakki inflyatsiya darjasining barqaror ushlab turilishi, banklar tomonidan jamg'armalar bo'yicha real foiz stavkasini belgilanishi, aholi omonatlarining bank resurslari tarkibida oshishiga yordam beradi. Yuqoridagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, depozitlarning o'rtacha tortilgan foiz stavkasi va inflyatsiya darajasi o'rtasidagi mutanosiblik ushlanmaganligini ko'rishimiz mumkin. 2021–2022-yillarda inflyatsiya darajasining o'zgarishiga qaramay jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalari o'zgarishsiz qolgan.

Ijtimoiy va madaniy omillar ham tashqi bank faoliyatiga bog'liq bo'lmagan omillardan biri hisoblanadi. Ma'lumki bir ijtimoiy muhitda yashaydiganlar o'z madaniyatlariga egalar. Masalan, talaba, qariyalar (nafaqaxo'r), yosh oilalar va boshqalar. Mamlakatimizda esa, aholining katta qismini 16 dan 55 (60) yoshgacha bo'lgan kishilar tashkil etadi (umumiy aholining 58 foizi) ^[12]. Tijorat banklari, chakana xizmatlar bo'yicha strategik rejasini ishlab chiqayotganda bunga alohida e'tibor berishi lozim. Aholining yoshidan kelib chiqib uning bank xizmatlariga bo'lgan talabi har xil bo'lishi mumkin. Masalan: 55 (60) yoshdan o'tgan mijozlarning asosan, bankning jamg'arma xizmatlariga talabi yuqori bo'lsa, 16 yoshdan 55 (60) yoshgacha bo'lgan aholi ko'proq ipoteka, iste'mol kreditlariga bo'lgan talabi yuqori bo'lishi mumkin.

Chakana bank xizmatlariga ta'sir etuvchi ichki omil bu bank tizimining holatidir. Bank tizimi moliyaviy imkoniyatlari (potensial) dinamikasining ijobiy bo'lishi chakana bank xizmatlari turlarini kengaytirishiga, hajmini oshishiga, sifatini yaxshilanishiga bevosita yordam beradi, chunki har qanday yangi bank xizmatlarini joriy etish va yangi texnologiyani kiritilishi bankdan xarajatlarni talab etadi.

5-jadval: Tijorat banklari kapitalining o'sish dinamikasi ^[11] (1 yanvar)

| Davr | 01 01 2020 | 01 01 2021 | 01 01 2022 | 01 01 2023 |
|--|------------|------------|------------|------------|
| Tijorat banklari kapitali trln. so'm | 26,7 | 58.4 | 70.9 | 79.6 |
| Kapital yetariligi ko'rsatkichi % | 15,6 | 23.5 | 17.5 | 17.8 |
| I darajali kapital yetariligi ko'rsatkichi % | 14,3 | 19.6 | 14.6 | 14.5 |

O'zbekistonda tijorat banklarning kapitallashuvi yildan yilga oshib bormoqda. 2022-yil boshiga kelib tijorat banklarining kapitali 79,6 trln. so'mga yetdi. Bank kapitalini oshishiga qaramay kapitalni yetarililik ko'rsatkichini 2022-yilda uncha o'zgarmaganligiga sabab riskka tortilgan aktivlarning oshishi bilan izohlanadi. 2022-yil 1-yanvarda riskka tortilgan aktivlar 414, 5 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2023-yil 1-yanvariga kelib 468,0 mlrd so'mga yetgan.

- **Iqtisodiy va siyosiy omillar.** Iqtisodiy muhitning ta'siri turli xildir, qanchalik mamlakatda barqaror iqtisodiy muhit hukm sursa, ushbu omillarning ta'siri shunchalik kuchsiz (sezilsiz) bo'ladi. Siyosiy omillarga esa davlat tomonidan qabul qilingan Qonun va normativlar alohida ta'sir ko'rsatadi.
- **Ijoiy va salbiy ta'sir etuvchi omillar.** Banklar chakana biznesi asosan jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlarni qamrab olar ekan, chakana xizmatlarni o'sishiga ko'maklashuvchi va shu bilan bir qatorda ularni orqaga tortuvchi omillar ham mavjuddir. Ushbu ta'sir etuvchi omillar mamlakatning mentaliteti va tarixiy rivojlanish bosqichlarga ham bilvosita bog'liqdir. Shunday ekan, avval salbiy ta'sir etuvchi omillarga e'tibor qaratsak:
 1. O'zbekiston aholisining joriy daromadlarini jamg'arishga nisbatan harajat qilishga bo'lgan moyilligidir. Chunki ko'pgina aholi qatlami daromadini joriy ehtiyojlar uchun sarflaydi, ikkinchi qismi esa yirik summadagi xizmatlar, qimmatbaho tavarlarni sotib olish uchun yig'ib ko'yadi va qolgan qisminigina banklarda jamg'aradi.
 2. **Aholining moliyaviy savodxonligi.** Bugungi kunga kelib tijorat banklari tomonidan aholiga taklif qilinayotgan xizmat turlari kunga kunga oshib bormoqda, jahon amaliyotida 2500 dan ortiq xizmat turlari taklif qilinsa, O'zbekiston amaliyotida bu ko'rsatkich 300 dan ortiqdir. Shunisi achinarliki, aholining ko'p qismi ushbu taklif qilinayotgan xizmat turlari haqida to'laqonli ma'lumotga yoki tushunchaga ega emas.



3. **Huquqiy baza.** O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish tarixi uzoq davrni o'z ichiga olmaydi, ya'ni endi rivojlanib kelayotgan yosh tarmoqlardan biridir. Bizga ma'lumki, bank tizimining rivojlanish bosqichini uchta yirik bosqichga bo'lishimiz mumkin, ya'ni birinchi bosqich o'z ichiga milliy valyutamizni joriy etgungacha - 1991-yildan 1994-yilgacha bo'lgan davrni, ikkinchi bosqich bank tizimini shakllantirish va ular oldidagi vazifalarni aniqlashtirib olishga qaratildi va so'ngi bank tizimini shakllantirishdagi uchinchi bosqich asosan bank tizimini rivojlangan mamlakatlar miqyosiga chiqarish va bank operatsiyalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, u 2000-yildan keyingi davrni o'z ichiga oladi. Shunday ekan, bu davr ichida Qonunchilik hujjatlarining bir necha bor o'zgartirish va ba'zi mavjud Qonunlarni takomillashtirishga to'g'ri keldi.
4. **Bank tarixi.** Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banki xizmatlarini tanlashda aholi asosiy e'tiborni bankning uzoq davrdan beri bozorda faoliyat olib borishiga ko'proq e'tibor qaratadi. Rossiyaning "Milliy Moliyaviy Tadqiqot Agentligi"ning izlanishlari bo'yicha, aholining bankni tanlashga ta'sir etuvchi me'zonlarga qo'yidagilarni kiritishimiz mumkin ^[13]:
- Bankning uzoq davr mobaynida bozorda faoliyat yuritishi – 51,8%;
 - Davlat kafolatining mavjudligi – 42,7%;
 - Tanish-bilish va dustlarning ijobiy tavsiyasi – 31,2%;
 - Bank xizmatlari bo'yicha foydali ta'riflar – 26,0%;
 - Bank filiallarining qulay joylashuvi – 23,6%;
 - Filiallar sonining kengligi – 21,9%;
 - Xizmat ko'rsatishda yuqori sifat – 21,9%;
 - Taklif etilayotgan xizmat turlarining ko'pligi – 16,8%;
 - Bank reytingi bo'yicha yuqori o'rinlarda turishi – 16,3%;
 - Bank xizmat vaqtining qulayligi – 14,6%;
 - Reklama va yuqori sifatli axborotning mavjudligi – 4%.

Shunisi diqqatga sazovorlikki bank xizmatlarining yuqori sifati va bank reytingi bo'yicha yuqori o'rinlarda turishi, aholi tomonidan bankni tanlashda unchalik katta ahamiyatga ega emas ekan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chakana bank xizmatlari bozoriga ta'sir etuvchi, ichki va tashqi omillar o'rganilgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Mamlakatdagi iqtisodiy o'sish, barqarorlik chakana bank xizmatlariga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Respublikada oxirgi yillarda doimiy iqtisodiy o'sish, iqtisodiy barqarorlik kuzatilmokda.
- Tijorat banklari kapitallashuvi darajasining oshib borishi, chakana bank xizmatlarini takomillashtirishga imkon yaratadi.
- Mamlakatda aholi sonining yildan yilga o'sishi, daromadlik darajasining oshib borishi tijorat banklari chakana xizmatlari bozorida, chakana xizmatlarga bo'lgan talabni ortishiga imkon yaratadi.

Bugungi kunda tijorat banklarimiz oldida chakana bank xizmatlari ommabobligini oshirish va ushbu bank xizmatlarini yanada takomillashtirish asosiy vazifa ekan, ushbu maqsadga erishishda bank faoliyati qo'yidagi yo'nalishlarga qarab faoliyat olib borilishi lozim:

- Banklarning chakana xizmatlar bozoriga aholining yoshlar bo'yicha guruhi ham ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari, chakana xizmatlar bo'yicha strategik rejasini ishlab chiqayotganda bunga alohida e'tibor berish lozim.
- Respublika miqyosida hududlardagi iqtisodiy ko'rsatkichlardan kelib chiqib bank xizmatlari turlarini taklif etish va xizmatlar bo'yicha tariflarni belgilash, ushbu xizmatlar bozorini rivojlantirib, kengaytirishga ko'maklashadi.
- Chakana bank xizmatlarini taqdim etish xarajatlarini qisqartirish va bir vaqtning o'zida bir necha mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun masofaviy bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish.

**Foydalanilgan ajabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilning 23-fevralida PQ-3620-sonli "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" Qarori www.lex.uz
2. 2020-yil 12-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni www.lex.uz
3. Белоглазовой Г. Н., Крошвецкой Л. П. "Банковское дело" Учебник для вузов 2-е издание П: 2018г 400 С
4. Галицкая С.В. "Деньги, кредит, банки". Полный курс. Москва изд. "Эксмо" 2008г 336 С
5. Гурьянов С.А. "Маркетинг банковских услуг" Москва 76 стр
6. Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012г. - 183 с.
7. Жуков Е.Ф. "Банковское дело" М.: ЮНИТА-ДАНА 2007 г. 250 стр.
8. Иванов А.Н. "Банковские услуги: зарубежный и российский опыт" Москва "Ф и С" 2002г 176 С
9. Суяров Ф. "Рынок розничных банковских услуг" // Бозор, пул ва кредит журналы 2002 й., 8 август -15 б.А.С. Гончарук Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012г. - 183 с.
10. Тавасиева А.М. "Дополнительные операции для клиентов" Москва "Ф и С" 2005г.416 С
11. www.cbu.uz O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti
12. www.stat.uz O'zbekiston respublikasi davlat statistika qumitasi rasmiy sayti ma'lumotlari
13. www.nacfin.ru "Национальное Агентство Финансовых Исследований"

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.